



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**“Global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv tanqisligini yumshatish, qishloq
xo‘jaligini raqamlashtirishda “Smart” texnologiyalardan foydalanish
usullari” mavzusida**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
TO‘PLAMI**

27-28 март 2026 йил

**СБОРНИК
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
международная научно-практическая конференция на тему "Методы
использования "Smart" технологий для смягчения дефицита воды и
цифровизации сельского хозяйства в условиях глобального изменения
климата"**

27-28 марта 2026 год

**COLLECTION
FOR THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND
PRACTICAL CONFERENCE**

**International Scientific and Practical Conference on the topic "Methods of
Using 'Smart' Technologies to Mitigate Water Scarcity and Digitalize
Agriculture in the Context of Global Climate Change"**

March 27-28, 2026

qo'llash agroekotizimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Natijada tabiiy resurslarning tiklanish qobiliyati saqlanib qoladi, inson salomatligi uchun xavf tug'diruvchi omillar kamayadi.

Ilmiy asosda tashkil etilgan ekinlarni joylashtirish tizimi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Aholi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuvi va global bozorlar beqarorligi sharoitida ichki oziq-ovqat ishlab chiqarishni barqaror saqlash har bir davlat uchun strategik vazifa hisoblanadi. Turli guruhdagi ekinlarni muvozanatli joylashtirish orqali asosiy oziq-ovqat mahsulotlari – don, sabzavot, meva, o'simlik yog'i va oqsil manbalarini yetarli hajmda ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa importga qaramlikni kamaytiradi, narxlarning keskin tebranishini oldini oladi va aholi uchun ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat hududining katta qismi qurg'oqchil iqlim zonasida joylashganligi, sug'oriladigan yerlarning ustunligi, suv resurslarining cheklanganligi va tuproq sho'rlanishining keng tarqalganligi ekinlarni joylashtirishga ilmiy yondashuvni talab etadi. Paxta va g'alla yetishtirishning strategik ahamiyatini saqlab qolgan holda, sabzavotchilik, bog'dorchilik, yem-xashak va dukkakli ekinlar ulushini oshirish orqali ekinlar tarkibini diversifikatsiya qilish respublika qishloq xo'jaligi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda hududlarning tabiiy resurslari va ixtisoslashuvi hisobga olinishi muhimdir.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi sharoitida ekinlarni joylashtirishning moslashuvchan mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Haroratning ko'tarilishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois qurg'oqchilikka chidamli, qisqa vegetatsiya davriga ega va yuqori moslashuvchan navlarni joriy etish, suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo'llash va agrotexnik tadbirlarni ilmiy asosda rejalashtirish muhim strategik vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. Toshkent, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari to'plami. Toshkent.
3. Ergashev X. Almashlab ekish tizimlari va ularning samaradorligi. Toshkent: Agrar nashr, 2020.
4. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishning nazariy asoslari O'quv qo'llanma. Toshkent -2021. 169 b
5. Chertovitskiy A. S., Bazarov A. K. Upravleniye zemlepolzovaniyem. Toshkent, 2009, 3766.
6. Varlamov A. A., Galchenko S. A. Upravleniye zemelnimi resursami. Uchebnoye posobiye. M. GUZ, 2008. -2 4 0 s.
7. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishni loyihalash. O'quv qo'llanma. Toshkent -2021. 177 b.

YER TURLARINI VA ALMASHLAB EKISHNI TASHKIL ETISH

J.Ch.Urinov

Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarida yer turlarini tashkil etish hamda almashlab ekish tizimini ilmiy asosda shakllantirish masalalari yoritilgan. Yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularning tarkibi va nisbatini belgilash, yerlarni transformatsiyalash hamda meliorativ, ekologik va agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yer resurslari, yer turlari, almashlab ekish, haydalma yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, daraxtzorlar, melioratsiya, tuproq unumdorligi, eroziya, qishloq xo'jaligi yerlari, yerlarni transformatsiyalash, agroekologik yondashuv.

Qishloq xo'jalik korxonasida xo'jalikda ichki yer asosiy vazifalaridan biri yer turlari va almashlab ekishni tashkil etish hisoblanadi. Uni yechish jarayonida quyidagilar aniqlanadi:

har bir yer uchastkasining xo'jalikdagi vazifasi va foydalanish tartibi;

ayrim yer turlaridan va yer uchastkalaridan foydalanishning intensivlik darajasi;

almashlab ekishlar tizimi, yerlarni yaxshilash va konservatsiyalash, tuproqlar unumdorligini saqlash va qayta tiklash, hududni meliorativ, tabiatni muhofaza qilish uchun va eroziyaga qarshi tuzish;

yer uchastkalaridan foydalanish me'yorlari, tartibi va sharoitlari.

Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish deganda ularning asoslangan tarkibini, nisbatini, xududda xo'jalik maqsadiga muvofiq joylashtirilishi va tabaqalashtirib foydalanilishi tushuniladi. Bu bir necha ajralmas bog'liq masalalarini yechishni taqozo etadi.

1. Yer turlari tarkibini (tuzulishini) va nisbatini, ulardan foydalanish tartibi va sharoitlarini belgilash.

2. Yer turlarini transformatsiyalash, yaxshilash va joylashtirish.

3. Almashlab ekish tizimini tashkil etish.

Yer turlari va almashlab ekishni tashkil etish-ning asosiy maqsadi - yer egalari va yerdan foydalanuvchi-larning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olish asosida yerdan foydalanish intensivligini oshirish va samaradorligini o'stirish imkoniyatlarini aniqlash. Bunda ekologik talablarga qattiq rioya qilish kerak, sababi, aks holda tuproqlar unumdorligi pasayadi, ularda eroziya va buzilish jarayonlari rivojlanadi.

Loyihada vazifalar yechiladi: 1. Xo'jalikning barcha yerlaridan ularning tabiiy xususiyatlariga, yer turlari va ekin maydonlarining optimal tarkibini tanlash, yer turlarini yaxshilash buyicha tadbirlar majmuasini ishlash yuli bilan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlariga mos tarzda oqilona foydalanishni tashkil etish.

2. Yerlarni unumsizlanish va buzilishdan himoya qilish, tuproqlarning yo'qotilgan unumdorligini tiklash, hududning ekologik turg'unligini ta'minlash maqsadida melioratsiya, eroziyaga qarshi va tabiatni muhofazalash tadbirlari tizimini ta'minlash.

3. Yer turlarining mayda konturliligini va parcha-lanishini tugatish, tuproq unumdorligidagi farqlarni kamaytirish, melioratsiya va madaniy-texnik tadbirlarini asosli o'tkazish, yer turlarini to'g'ri transformatsiyalash va almashlab ekishlarni joylashtirish, yerlarni kompleks tarzda madaniylashtirish hisobiga ekologik va agrotexnik jihatdan bir xil yer massivlarini yaratish.

4. Dehqonchilikning, xo'jalik yuritishning ilg'or tizimlarini joriy etish, ozuqa bazasini tashkil etish, tuproqlar unumdorligini oshirish uchun qulay tashkiliy-xududiy sharoitlar yaratish.

5. Sharoitlar yaratish:

xo'jalikni va uning ishlab chiqarish bo'limlarini optimal ixtisoslashtirish, mehnatni samarali tashkil etish, qishloq xo'jalik texnikalari unumdorligini oshirish uchun;

yer turlarini transformatsiyalash, yaxshilash va joylashtirish bilan bog'liq kapital xarajatlar samaradorligini oshirish uchun;

ishlab chikarishning transport va boshqa xarajatlari-rini maksimal qisqartirish uchun.

Yuqorida sanab o'tilgan masalalarni yechish ulardan foydalanish va ularni muxofaza qilishning mavjud tizimlarini, ularning xo'jalikdagi yangi iqtisodiy vazifalarni yechish uchun yaroqliligini baholashga, yerlarni ularning har xil turdagi qishloq xo'jalik yerlari (haydalma yerlar, daraxtzorlar, pichanzorlar, yaylovlar) va ekinlari uchun yaroqliligi bo'yicha baholashga taalluqli tayyorgarlik ishlari materiallarini taxlil qilish va ularga aniqlik kiritishdan boshlanadi.

Keyin maxsus tartibda va sharoitlarda foydalaniladigan yerlar aniqlanadi va ular plan asoslarga tushiriladi.

Keyinchalik xo'jalik yerlari ularni melioratsiyalash, madaniy - texnik tadbirlarni o'tkazish, qishloq xo'jalik yerlari maydonlarini kengaytirish, ularning tarkibini va joylashishini yaxshilash imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bunday ishlarining ob'ektlari - botqoqliklar, chakalakzorlar, jarliklar, sho'rhaklar, ortiqcha namlangan va yovvoyi o'simliklar qoplagan qishloq xo'jalik yerlari bo'lishi mumkin.

Undan keyin ko'llar, hovuzlar, har xil melioratsiya va suv xo'jaligi inshootlari, kichik sug'orish uchastkalari hamda xo'jalikdagi ichki qurilish va asosiy yo'llar uchun zarur yerlarning maydoni aniqlanadi va ular ajratiladi. Haydalmaydigan yerlarda ihota daraxtlari tizimi loyihalanadi, jarliklar va chuqurliklar yonida o'rmon polosalari, to'la daraxtlar bilan qoplanadigan uchastkalar joylashtiriladi, haydalma yer-lardagi ihota daraxtlari polosalarining taxminiy may-doni aniqlanadi. Va nihoyat, konservatsiyalanishi, qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqarilishi, ko'p yillik o'tlar

bilan qoplanib o'tloqlashtirilishi kerak bo'lgan uchastkalar belgilanadi.

Loyihalashning keyingi tartibi quyidagidek davom etadi:

1. Yerlarni ular qishloq xo'jaligi uchun yaroqliligi (har xil ekinlar va yer turlari uchun) bo'yicha baholash, izlanishlar va qidiruvlar materiallarini, uchastkalarni joylarda chuqur o'rganish natijasida yerdan foydalanishni intensivlash imkoniyati izlanadi:

qishloq xo'jalik va noqishloq xo'jalik yerlarini haydalma yerlarga o'zlashtirish, melioratsiyaning har xil turlarini qo'llash hisobiga;

haydalma yerlar unumdorligini maqsadli oshirish va ular massivlarini sho'r dog'larini, ortiqcha namlangan joylarini, kirib qolgan chakalakzorlar, mayda o'rmonlar, botqoqliklarni tugatish yo'li bilan yiriklashtirish, sanatsiyalash yoki o'g'itlarning oshirilgan me'yorlarini qo'llashni talab etadigan uchastkalarni ajratish hisobiga;

pichanzorlar va yaylovlar maydonlarini noqishloq xo'jalik yerlari hisobiga kengaytirish bilan; yem-xashak olinadigan yerlarni tubdan va yuzaki yaxshilash, sug'orish, quritish, madaniy-texnik tadbirlarni o'tkazish hisobiga;

1. Daraxtzorlarni (bog'lar, uzumzorlar, rezavorzorlar) qayta tiklash hisobiga.

Transformatsiyalash plani va yerlarning taxminiy eksplikatsiyasi 2 muddatga tuziladi, hisoblangan va bashoratlangan.

Tavsiya etilayotgan yechimlar ko'rsatkichlar tizimi yordamida asoslanishi kerak.

Xo'jaliklarda yerdan foydalanish har xil, yer turlariga bog'liq holda amalga oshiriladi. Har xil yer turlari-ni tavsiflovchi asosiy belgilar - ularning mo'ljallangan maqsadlari, ta-biiy va yaratilgan xususiyatlari.

Yer turlarini klassifikatsiyalash ularning mo'ljallangan maqsadlari va doimiy foydalanishini hisobga olib o'tkaziladi. Masalan, vaqtincha mollarni boqish uchun foydalanilayotgan pichanzor mollarni boqish uchun foydalaniladigan o'rmon singari yaylov deb hisoblanmaydi.

Shunday qilib, yer turlari deb o'ziga xos tabiiy yoki yangidan yaratilgan xususiyatlarga ega, ma'lum ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun rejali va doimiy foydalaniladigan yer uchastkalariga aytiladi.

Yer turlari ikki asosiy guruhga - qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi, bo'linadi. Birinchisiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olish uchun doimiy foydalaniladigan yerlar kiradi. Ular haydalma yerlar, daraxtzorlar, partov, bo'z yerlar, pichanzorlar va yaylovlarni o'z ichiga oladi.

Haydalma yerlar - deb yuqori unumdor tuproqli, doimiy ishlanadigan va qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalaniladigan yerlarga aytiladi. Haydalma yerlarga yerlarni yashil o'g'it sifatida ekilgan va tubdan yaxshilash uchun haydaladigan ekinlar egallagan yerlar hamda ekin ekish uchun foydalaniladigan bog' daraxtlari orasidagi yerlar kiritilmaydi.

Daraxtzorlar - sun'iy yaratilgan daraxtlar, chakalaklar yoki ko'p yillik o't-o'simliklari uchun foydalaniladigan, meva-rezavor, texnika, yoki shi-fobahsh mahsulotlari hosilini olish uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik yer turlaridir. Daraxtzorlar tarkibida bog'lar, uzumzorlar, rezavorzorlar, meva ko'chatxonalari, plantatsiyalar ajratiladi.

Partov (bo'z) yerlar - bu oldin haydalma yer bo'lib, keyin kuzdan boshlab bir yildan ko'p qishloq xo'jalik ekinlarini ekish uchun foydalanilmagan va toza shudgor (par) uchun qoldirilmagan yer uchastkalaridir.

Pichanzorlar - doimiy pichan o'rish uchun foydalaniladigan yer turlaridir. Pichanzorlar davlat standartlariga asosan suv bilan qoplanadigan, quruq, zaxlashgan, tubdan yaxshilangan, toza, har xil darajada chakalaklar, o'rmon daraxtlari va do'ngliklar bilan qoplangan bo'lishi mumkin.

Yaylovlar - doimiy chorva mollarni boqish uchun (bunday foydalanish asosiy hisoblanadi) foydalaniladigan hamda mollarni boqish uchun yaroqli, pichan o'rish uchun foydalanilmaydigan va partov (bo'z) yerlar hisoblanmagan yer turlaridir.

Yaylovlar quruq, batqoqlashgan, tubdan yaxshilangan, madaniy, haydab boqiladigan chorvachilik uchun, suv chiqarilgan, har xil darajada do'ngliklar, chakalakzor va o'rmon daraxtlari bilan qoplangan, ezilgan yerlarga ajratiladi.

Tubdan yaxshilangan pichanzorlar va yaylovlar ustki chim qatlamini yo'qotish va keyingi o'tloqlashtirish yo'li bilan yangi o'simliklar qatlami yaratilgan uchastkalar hisoblanadi. Daryolar havzalarida va eroziya xavfi yuqori qiyaliklarda o'tloqlashtirish chim qatlamini buzmasdan ham

bajarilishi mumkin.

Madaniy yaylovlarga zarur tadbirlar majmuasi o'tkazilgan (tubdan yoki yuzaki yaxshilash), yaxshi o'tlar qatlami yaratilgan, doimiy parvarishlanadigan, o'g'itlanadigan, mollarni qamab (me'yorli) boqish amalga oshiriladigan yaylovlar kiradi. Madaniy yaylovlar ko'pchilik hollarda sug'oriladi.

Qishloq xo'jalik yerlari o'zining tiplari va tuproqlar mexanik tarkibi, eroziyaga uchrash darajasi, sho'rlanishi, madaniylashishi, toshloqligi bilan aniqlanadigan sifati ahvoli bo'yicha birlaridan keskin farq qilishi mumkin.

Noqishloq xo'jalik yerlariga o'rmonlar, chakalakzorlar, botqoqliklar, qurilishlar, inshootlar, yo'llar, mollar haydaladigan yo'llar, suv va boshqa yer turlari bilan band yerlar kiradi.

Noqishloq xo'jalik yerlarining bir qismi ularni melioratsiyalash (sug'orish, zax qochirish, sho'rini yuvish), madaniy-texnik ishlar (chakalaklar va o'rmon daraxtlarini olib tashlash), madaniylashtirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazgandan keyin qishloq xo'jaligida foydalanishga qo'shilishi mumkin. Avvalo, bu suv muhofazalash ahamiyatiga ega bo'lmagan chakalakzorlar va mayda o'rmonlar, batqoqliklar, jarliklar majmuasi, sho'rlangan yerlardir. 2000 yil 1 yanvar holatiga O'zbekiston qishloq xo'jalik yerlarining umumiy maydoni 26753,6 ming ga (umumiy maydonning 60,2%) egallaydi; haydalma yerlar - 4056,6 ming ga (9,1%); o'rmon va chakalakzorlar - 1511,9 ming ga (3,4%); meliorativ qurilish tayyorgarligi holatidagi yerlar - 74,3 ming ga (0,2%); tomorqa yerlari va fuqarolarga jamoa bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun berilgan yerlar - 651, 4 ming ga (1,5%); boshqa yerlar - 15414,1 ming ga (34,7%).

Qishloq xo'jalik yerlarining Respublikamiz umumiy yer maydonidagi salmog'i nisbatan katta, shu sababli, ular-dan samarali foydalanishga erishish katta ahamiyatga ega.

Yer turlarining son va sifat tarkibi, foydalanilmayotgan yerlarni qishloq xo'jaligida foydalanishga jalb etish har qanday xo'jalikning va uning ishlab chiqarish bo'limining ixtisosligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ixtisoslik, birinchi navbatda korxonaning iqtisodiy manfaatlarni aks ettirib, yer turlarining tarkibi va maydoniga aks ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sutgo'sht yoki qo'ychilik yo'nalishidagi xo'jaliklar yer turlari tarkibida ko'proq yaylov va pichanzorlar, sug'oriladigan madaniy ozuqa olinadigan yerlar, intensiv ozuqa almashlab ekishlari bo'ladi. Dexqonchilik mahsulotlariga ixtisoslashgan korxonalarda, odatda, haydalma yerlar, bog'dorchilik va uzumchilik xo'jaliklarida esa - daraxtzorlar ko'p bo'ladi.

Yer turlarining tarkibi va nisbati chorva mollarini saqlash tizimiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, agar yozda mollar yaylovlarda saqlansa, yerlarni transformatsiyalash jarayonida ularning maydonlarini ko'paytirish kerak. Yil davomida bog'lab boqiladigan bo'lsa, zarur hajmdagi yashil ozuqalar haydalma yerlardan olinishi kerak bo'ladi.

Yer turlarining tarkibi va nisbati korxonaning tashkiliy-xo'jalik tuzilishini, uning moliyaviy-iqtisodiy imkoniyatlarini, mehnat va moddiy resurslarning mavjudligini hisobga olib belgilanadi.

Yer turlari tarkibi va maydoniga asosiy ta'sirni hududning tabiiy xususiyatlari, yerlarning ayrim massivlari uchastkalarining farqi ko'rsatadi, bu yer turlari tarkibini belgilashga, ularni transformatsiyalash va yaxshilashga tabaqalashgan yondoshuvni talab etadi.

Tog' va tog' oldi mintaqalarida haydalma yerlar jarliklar va chuqurliklar bilan bo'lingan bo'ladi; hudud qiyaliklarining har xilligi va nishabligi bilan murakkab relefga ega, bu suv eroziyasi xavfini kuchaytiradi. Bunday sharoitlarda quyidagilar nazarda tutiladi:

kuchli eroziyaga uchragan haydalma yerlarni o'tloqlashtirish;

himoya o'rmon polosalarining mavjudlarini ta'mirlash va yangilarini ekish;

kichik sug'orish tizimlarini qurish, asosan, mahalliy suv manbaalarida;

qiyaliklarni terraslash, keng asosli tuproq ko'tarmalarini, suvni ushlab turuvchi dambalarni va boshqa gidrotexnik inshootlarni qurish;

tashkiliy-xo'jalik, agrotexnik va boshqa eroziyaga qarshi tadbirlar tizimi, mollarni me'yorli boqish.

Bunday sharoitlarda yer turlarini tashkil etishning asosiy vazifasi - haydalma yerlar maydonining kamayishiga yo'l qo'ymaslik. Shu maqsadda, dehqonchilik va yem-xashak ekinlari uchun yaroqli maydonlar haydalma yerlarga o'zlashtiriladi, ozuqa olinadigan yer turlari minimumga tushiriladi, ular haydashga yaroqsiz uchastkalar va chuqurliklarga joylashtiriladi.

Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida haydalma yerlarga o'zlashtirish uchun yer zaxiralari kam qolgan. Shuning uchun yer turlari tarkibini va maydonlarini belgilashda, birinchi navbatda e'tibor, asosan, sho'rlangan yerlarni melioratsiyalash hisobiga tuproqlar unumdorligini oshirishga va shamol eroziyasining oldini olishga qaratiladi.

Mazkur mintaqada odatda quyidagi tadbirlar ko'zda tutiladi: Ihota daraxtlari polosalari tizimini yaratish, sho'rlangan yerlarni melioratsiyalash, dalalar sathini tekislash, dala yo'llarini va hududni jihozlashning boshqa injenerlik ob'ektlarini qurish.

Quruq cho'l hamda yarim sahro mintaqalarida qishloq xo'jalik yerlari maydoni yerlarni sug'orish imkoniyatlaridan va ularning qishloq xo'jalik ekinlarini ekish, daraxtzorlar va yaylovlar uchun yaroqliligidan kelib chiqib aniqlanadi.

Barcha vaziyatlarda yer turlari tarkibi va maydonlarini aniqlashda tayyorgarlik ishlari va hududni yer tuzish o'rganishi jarayonlarida olingan yerlarning agroekologik guruhlar va yer sinflariga bo'lingan har xil yer turlari uchun qishloq xo'jaligida yaroqliligini baholash ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bu, yer tuzishda adaptiv yondoshuv-ni amalga oshirish uchun zarur. Bunday yondashuvda har bir ajratilgan yer uchastkasi o'zining tabiiy xususiyatlari bo'yicha ularda joylashtirila-digan yer turlariga, qishloq xo'jalik ekinlariga, qo'llani-ladigan dehqonchilik tizimlariga mos bo'lishi kerak.

Yer turlarining tarkibini va maydonlarini belgilash xo'jalikning iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradiganuvchi maxsus tabiiy sharoitlarni talab etuvchi yoki tabiatni muhofaza qilish talablarini bajarish bilan bog'liq yer turlaridan boshlanadi.

Xulosa: Qishloq xo'jaligi korxonalarida yer turlarini to'g'ri tashkil etish hamda almashlab ekish tizimini ilmiy asosda joriy etish yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yer - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, uning miqdori cheklangan, ammo ahamiyati juda katta. Shu sababli yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ham ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Yer turlarining to'g'ri tashkil etilishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, tuproq unumdorligini saqlash va tiklash, ekologik muvozanatni ta'minlash hamda hududlardan kompleks foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yer turlarini tashkil etish jarayoni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yer resurslarining tabiiy xususiyatlari, tuproq tarkibi, relef, iqlim sharoiti, suv bilan ta'minlanganlik darajasi, shuningdek xo'jalikning ishlab chiqarish yo'nalishi va ixtisoslashuvini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yer turlarining tarkibi va nisbati xo'jalikning iqtisodiy manfaatlari, mavjud moddiy-texnika bazasi, mehnat resurslari va ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan yer turlarini tashkil etishda hududning agroekologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, har bir yer uchastkasining ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlash va ulardan eng maqbul tarzda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov V.R, Babajanov A.R. Davlat kadastri asoslari. Toshkent, TTU 2012. 132 b.
2. Babajanov A.R., Rahmonov Q., G'ofirov A.J. Yer kadastri / O'quv qo'llanma. Toshkent, «Cho'lpon», 2014. 168 b.
3. Babajanov A.R., Ro'ziboev S.B., Tulaganov I.B. «Tuman yer hisoboti (balansi) ni tuzish» metodik ko'rsatma, Toshkent, TIMI, 2008 y. 53 b.
4. Chertovitskiy A. S., Bazarov A. K. Upravleniye zemlepolzovaniyem. Toshkent, 2009, 3766.
5. Varlamov A. A., Galchenko S. A. Upravleniye zemelnimi resursami. Uchebnoye posobiye. M. GUZ, 2008. -240 s.
6. Avezbaev Sadulla, Sharipov Sayfuddin Raximovich, Yer tuzishni loyihalash. O'quv qo'llanma. Toshkent -2021. 177 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qarori.

72	I.K.Gayimnazarov, B.B.Shermatov Analysis of energy-efficient materials in construction.	214
73	U.J.Quvvatov, A.A.Abdirazakov, M.Q.Jomurodova, S.I.Davranov. Gidroto'plash elektr stansiyalari energiya ta'minotida foto energetik qurilmalardan foydalanish.	218
74	M.S.Rasulova, M.F.Xo'jamshukurova. Suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.	220
75	O.N.Norboyev. Qashqadaryo viloyati nishon tumani sharoitida ochiq polimerli 800 m ³ suv havzasida suv bug'lanishini penman modeli asosida hisoblash.	222
76	A.I.Qurbanov, B.E.Norqulov, M.U. Umidullayev, D.A. Qalandarova. Shavot kanalida qirg'oq yuvilishiini oldini olish va morfometrik ko'rsatkichlarini o'zgarishni baholash.	228
77	I.B.Xushmatova, S.Sh.Sag'dullayeva. Chipoletti vodoslivlarida suv sarfini o'lchash: nazariya va amaliyot.	234
78	F.F.Bobomurodov, A.R.Hazratov, I.Sh.Payanova. Suv tashlagichlarning gidravlik samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy yechimlar	237
79	Б.М.Холбаев, М.Авлакулов Методологические подходы к формированию и управлению мелиоративными режимами.	242
II SHO'BA. YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH		
1	С.У.Кадиоров, Б.Ш.Хакимжонова, М.Б.Йулчиева. Устойчивое использование земельных ресурсов посредством переработки сланцевого сырья.	244
2	С.У.Кадиоров, М.Б.Йулчиева. Разработка технологии снижения пылеобразования на основе кристаллизации почвенных солей для устойчивого использования земельных ресурсов.	247
3	M.U.Isomiddinov. Yer resurslarini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli.	249
4	S.Z.Aliqulova, N.A.Mamajonova. Teodolitlarning sanoq olish qurilmalari.	254
5	С.У.Кадиоров, М.Б.Йулчиева. Рациональная переработка отходов железоксидного катализатора аммиачного производства с целью получения железных хелатов и эффективного использования земельных ресурсов.	256
6	Ў.Б.Мухторов. Қишлоқ хўжалиги ерларини кадастр баҳолаш ва унинг иқтисодиёт тармоқларидаги аҳамияти.	259
7	S.K.To'rayev. Qashqadaryo viloyati yer fondining yer toifalari va turlari bo'yicha tahlili.	261
8	S.K.To'rayev. Yer hisob tizimlarining tarixiy shakllanishi va ularning rivojlanish tendensiyalari.	265
9	J.Ch.Urinov. O'zbekiston sharoitida yer va ekin turlarini joylashtirish hamda almashlab ekishni tashkil etishning ilmiy asoslari.	272
10	J.Ch.Urinov. Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish.	278
11	N.M.Xolov. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlashning sug'oriladigan ekin yerlaridan foydalanish samaradorligiga ta'siri.	283
12	M.A.Xudoynazarova. Baxmal tumani tuproqlarning balandlik bo'ylab tarqalishi.	285
13	Sh.Suyunova. Toshkent viloyati yer resurslaridan oqilona foydalanish.	288
14	M.T.Azimov. Lalmi dehqonchilik hududlarining geografik joylashuvi va ularning hosildorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli.	292
15	X.T.Azimov. Yer monitoringi ishlarini olib borish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi.	295
16	M.T.Azimov. Lalmi yerlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammolari.	299